

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasining majlis
BAYONNOMASI

30 / 11 2024-yil

№ 7

Sariosiyo t.

Majlis raisi:	A. To‘raqulov
Kotib:	F. Umarova
Qatnashdilar:	21 nafar kafedra o‘qituvchilari.

Kun tartibi:

Professor-o‘qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o‘tkazish va o‘zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to‘g‘risida.

A. R. To‘raqulovning ochiq darsi muhokamasi uchun mas‘ul – D. Boboqulova.

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs-munozara: A. To‘raqulovning “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanidan “Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish.” mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

D. Boboqulova axboroti:

Hurmatli professor-o‘qituvchilar A. To‘raqulovning “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi” fanidan “Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish.” mavzusidagi ochiq darsi 2024-yil 29-noyabr kuni 2-navbat 3-juftlikda 2-kurs Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 7-BT-23-guruh talabalari bilan o‘tkazildi. Darsda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini tashxis etish usullari, ya‘ni formativ va summativ bahoash haqida tahlil qilindi. Zamonaviy tashxislash vositalaridan namuna sifatida foydalanildi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quv dasturlari va sillabusga amal qildi. Dars pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to‘liq berilgan. Dars davomida o‘qituvchi tezkor savollar yordamida “Nima ushun”, “FSMU”, “Idrok xaritasi” metodlarini qo‘llagan holda o‘tilgan mavzuni mustahkamlab oldi. Talabalarni bugungi kundagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yangiliklar bilan tanishtirib o‘tdi. O‘qituvchi darsni tashkil etishda hozirgi kunda Ruspublikamizda ta‘lim va tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar haqida fikr almashildi. Pedagog o‘quv materialini tushuntirishda har xil vositalar bilan uning talabalar tomonidan idrok etilishiga, anglashiga, esda saqlab qo‘lishiga erishdi. Dars jarayonida talabalarga “Idrok xaritasi” metodi yordamida savollar berdi va savollarga javob oldi.

Tahlilchi – kafedra o‘qituvchisi L. Elmurodova:

Darsning sifati darsning tarkibiy qismlarini to‘g‘ri tashkil qilinganligiga bog‘liq. Shunday ekan, bugungi A. To‘raqulovning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmqchiman.

Darsni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etdi:

- a) darsda maqsadni aniq – Tashxis etishning maqsadi, turlari bilan tanishtirildi;
- b) o‘quv materialini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metoddan foydalandi;

- c) talabalar jamoasi amaliy mashg'ulotga to'liq jalb etildi;
- d) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan;
- e) fan bo'yicha me'yoriy hujjatlar yetarli;
- g) dars jarayonida analiz-sintez usullaridan samarali foydalanildi;
- i) darsda talabalar faol ishtirok etdilar;
- j) dars qiziqarli tashkil etildi.

Talabalarni ertangi kasbiy hayotiga tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masaladir. Bugungi ochiq darsni A. To'raqulov ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.

Tahlilchi –o'qituvchi I. Turdiyeva:

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" fanining ishchi o'quv dasturi(sillabusi), kalendar tematik ish rejasi, ma'ruza matnlari mavjud. Elektron ta'lim kontenti namunali darajada. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda "Idrok xaritasi" metodidan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar. O'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mashg'ulotga jalb qila oldi.

Tahlilchi - o'qituvchi B. Shaximardonova:

O'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qildi. Talabalar bilan ishlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanganligi va darsni to'g'ri boshqarganligi sababli talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi.

Darsda muhokama qilish mumkin darajada kamchiliklar kuzatilmadi.

Yuqoridagilarni tinglab, majlis qaror qiladi:

1. A. To'raqulovning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda zamonaviy ta'lim metodlaridan, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olinganligi qayd qilinsin.

2. A. To'raqulovning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olib, **dars ijobiy baholansin.**

Muhokama uchun mas'ul:

Kotib:



D. Boboqulova

F. Umarova